



## NOTIQLIK - ISHONTIRISH SAN'ATI

Nargiza Muhamedova

O'zbekiston Jurnalistika va  
ommaviy kommunikatsiyalar universiteti,  
Bosma OAV va noshirlilik ishi fakulteti,  
Harbiy va sport jurnalistikasi kafedrası  
o'qituvchisi,  
[nargizasherzodovna@gmail.com](mailto:nargizasherzodovna@gmail.com)

**Annotatsiya:** Elektron ommaviy axborot vositalari, xususan radio va televide niye nutqining ta'sir ko'lami katta va e'tiborlidir. Televideenie tasvir, ovoz, musiqa va shovqin kabi ifoda vositalari orqali xizmat qiladi. Fikrni aniq, tugal, tez, sodda va oson yetib borishi nutq madaniyatini qay darajada egallanganiga bog'liq. Nutq mahorati bu oddiy nutq emas, balki fikrni sodda va chiroyli ifoda eta olishdir. Maqolada shu mavzuga doir talab va mezonlar bayon etiladi.

**Kalit so'zlar:** nutq, tafakkur, tinglovchi, so'z, usul, san'at.

**Аннотация:** Влияние электронных средств массовой информации, особенно радио- и телевизионной речи, велико и существенно. Телевидение служит средством выражения, таким как изображение, звук, музыка и шум. Ясность, полнота, быстрота, простота и легкость подачи мысли зависят от уровня владения культурой речи. Разговорная речь – это не просто речь, а умение просто и красиво выражать мысли. В статье описаны требования и критерии по данной теме.

**Ключевые слова:** речь, мышление, слушатель, слово, метод, искусство.

**Abstract:** The influence of electronic mass media, especially radio and television speech, is large and significant. Television serves as means of expression such as image, sound, music and noise. Clear, complete, quick, simple, and easy delivery of thought depends on the level of mastery of speech culture. Speaking skill is not just speaking, but being able to express thoughts simply and beautifully. The article describes the requirements and criteria for this topic.

**Key words:** speech, thinking, listener, word, method, art.

Kishilik jamiyati paydo bo'libdiki, so'z va nutqdan foydalanish, uning imkoniyatlari doirasida fikr etkazish va qabul qilishning turli usullari shakllangan. Notiqlik, voizlik ana shunday san'atdir. Shu ma'noda, notiqliknı dudama xanjarga o'xshatishadi. Ya'ni, u ikki tomoni ham kesuvchi quroldir. Bir tomonidaadolat tursa, ikkinchi tomonida adovat. Kim undan qanday foydalanishiga bog'liq.<sup>1</sup> Notiqlik san'atining vujudga kelishi qadimgi Rim va Gretsiyaga borib taqalsa ham O'rta Osiyoda bu san'at keng taraqqiy topdi. IX-XV asrlarni Sharq mamlakatlarida

<sup>1</sup> Носирова А. Сахна нутқи. — Тошкент: Фан ва технология, 2012





“Renessans” (uyg‘onish) davri deb atashadi. Bu davrda boshqa fanlar qatori adabiyot, she’riyat, notiqlik san’ati ham rivojlandi. Imom Buxoriy, Forobiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Amir Temur, Husayn Voiz Koshifiy kabi ko‘plab buyuk alloma va sarkardalar yuksak nutqiy mahoratga ega bo‘lganlar. Ular qisqa irod etib ommani o‘z orqasidan ergashtira olganlar. “Al-Muallim as-soniy” – “Ikkinchi muallim” deya ulug‘langan bobomiz Forobiy 70 ta tilni bilgan, O‘rta Osiyolik mutafakkirlardan biri Mirza Abdulqodir Bedilga “Sharq Gegeli” degan unvon, tavsif berilganki, bu uning zamonasining hamda Sharqning buyuk va yuksak ma’naviyat-ma’rifat egasi bo‘lganini ko‘rsatadi.<sup>2</sup> Voizning o‘zi ham so‘zi joiz bo‘lishi uchun chuqur bilim va malakaga, etuk dunyoqarash va saviyaga ega bo‘lishi kerak. Toki, uning har bir so‘zi xalq farovonligi, yurt tinchligi, vatan ravnaqiga xizmat qilsin. Nutq mohiyatlari, so‘z xosiyatlidir. Uni his etish va o‘rinli qo‘llash o‘ziga xos mezon va me’yorlarni bilish bilan bog‘liq. Jurnalist, sharhlovchi, muxbir, suxandon, muharrir, boshlovchi va o‘qituvchi kabi soha vakillari nutq masalalariga alohida e’tibor bilan qarashi zarur. Chunki, ular nutqiga qarab tinglovchi yoki tomoshabin tilning jozibasi, boyligi, ta’sirliligi, ya’ni nafosatini his etadi, me’yoriy nutq deb qabul qiladi. Shuning uchun ham nutqimiz ravon va mazmundor bo‘lishi uchun majburiyat burchi va mas’uliyat hissini tuygan holda o‘z ustimizda ishlashimiz zarur. Tinimsiz mashq qilish orqali bu mashaqqatni uddalash mumkin. Ba’zan “televiedeneda tasvir birlamchimi yoki nutq?” — degan savolga duch kelasiz. Har ikkalasining ham muhimligini inkor etmagan holda, aytish zarurki, tasvir asosiy o‘rin tutsa ham, gap har ikkovidan—tasvir va nutqdan qanday foydalana olishda. Shunday holatlar bo‘ladiki, biri ikkinchisining o‘rnini bosolmaydi. Nutq mahorati bu oddiy nutq emas, balki fikrni sodda va chiroyli ifoda eta olishdir. Ayrim boshlovchilar ko‘p so‘zlaydilar. Ammo ularning so‘zlaridan asosiy mantiqni topib olish qiyin bo‘ladi. Bu borada “So‘zni saqlab so‘zlaganlar xo‘b bilur so‘z qadrini, farqi yo‘q, ko‘p so‘zlaganlar na bilur o‘z qadrini” hikmatini keltirish o‘rinli.<sup>3</sup> Nutq mahoratining ikki omili bor: biri nutq xususiyatlarini bilish bo‘lsa, ikkinchisi nutq texnikasiga amal qilishdir. Nutqning to‘g‘riligi, aniqligi, mantiqiyligi, qisqaligi, soddaligi, sofligi, boyligi, jo‘yaliligi, ta’sirchanligi, obrazliligi, ravnligi

<sup>2</sup> Магдиев, Б. К. Нутқ маданиятида миллийлик рухи. Молодой ученый. — 2020. — № 9 (299). — С

<sup>3</sup> Станиславский К. С. Актёрнинг ўз устида ишлаши. Т.Хўжаев таржимаси. С.Мухамедов мухаррирлигига. — Тошкент: Янги аср авлоди, 2010.





uning xususiyatlari bo'lsa, ikkinchisi ovoz, nafas, diktsiya, intonatsiya, ohang, urg'u, to'xtam, ovoz tembri va hokazolar nutq texnikasidir. Har ikkalasini bilish va unga amal qilish nutq bobida mahorat qozonish demakdir.

Kishi fikrining aniq, samimiyligi va ta'sirli etib borishi so'zlovchining til va uning harakatdagi ifodasi bo'lgan nutq qoidalarini qanchalik bilishi va amal qilishiga bog'liq. Shunday ekan, nutqning aniqligi-tafakkurning tiniqligiga daxldor bo'lsa, talaffuzning aniqligi-nutqning tiniqligiga bog'liqdir. Notiq nutqining mantiqiy qudrati, ta'sir kuchi, jozibasi ham, aslida shu bilan. Notiq nutqi, voiz va'zi har bir davrlarda, har bir makonlarda joiz bo'lgani haq. Demak, nutqiy mahoratni egallashga intilish nutq odobi, aniqrog'i, til va nutq vositalarini puxta bilishni taqozo etadi. Nazariy ma'lumotlar amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashmas ekan, bunga erishish mushkul. Ustozlardan biri shunday degan edi: «Men minbarga chiqsam, o'zimni miltiq o'qtalgan ovchi oldida titrayotgan quyonga o'xshataman, yozish uchun stolga yaqinlashsam, o'zimni bamisoli sherdek tasavvur qilaman».<sup>4</sup> Bu og'zaki nutqqa, so'zga chechanligim yo'q, fikrni qog'ozga tushirish va etkazish bobida mahoratim yo'q emas deganidir. Og'zaki nutqning ham, yozma nutqning ham o'z talablari, imkoniyat doirasi bor. Har qanday so'zning xosiyati nutqning mohiyati bilan aloqadorgina emas, balki mantiqiy tafakkur mezonini hamdir. Demak, so'z xosiyatli bo'lganidek, nutq ham mohiyatli bo'lishini uni istifoda etuvchilar, doimo yodda tutishlari, amalda o'rinni qo'llay bilishlari zarur. Nutqning to'g'riliği, aniqligi, mantiqiyligi, sofligi, boyligi, ifodaviyligi, ta'sirliligi, jo'yaliligi, maqsadga muvofiqligi uning xususiyatlarini tashkil etsa, og'zaki nutqdagi ovoz, diktsiya, pauza, urg'u, ohang, intonatsiya, yozma nutqdagi tinish belgilari silsilasi nutqiy texnikadir. Fikrlash texnikangiz kuchli, ammo ovozingiz past, ta'sirsiz bo'lsa, yoki aksincha o'ktam ovoz, o'tkir nafasga ega bo'la turib tafakkuringiz bo'lmasa, bari behuda. Har ikkalasi omixta bo'lishi maqsadga muvofiq. Tinglovchi e'tiborini, dastavval, notiqning ko'rinishi, so'ngra uning ovozi tortadi. Ovoz o'qituvchining ham, notiqning ham birinchi quroli. Shuning uchun ham italyan aktyorlarining biridan «Aktyor uchun nima birlamchi?» — deb so'raganlarida, u «birinchidan ovoz, ikkinchidan ovoz, uchinchidan ovoz, to'rtinchidan boshqa narsalar»- deb javob bergani bejiz emas.<sup>5</sup>

<sup>4</sup> Уватов.у. Доналардан сабоқлар.-Т.: А.Қодирий номли ҳалқ мөбраси нашриёти.1994-йил.34-6.

<sup>5</sup> Носирова А. Сахна нутқи. — Тошкент: Фан ва технология, 2012





Donolar hayotini o'rganish shuni ko'rsatadiki, kishining aqliy kamoloti darajasi bilan nutqining uzun-qisqaligi teskari munosabatda bo'lar ekan (matematika tilida «teskari proportsional» deyiladi). «No'noq notiq»ning sayoz fikrini tinglayotgan kishining holati namaksiz va sifatsiz taomni zo'r lab eyayotgan odamning achinarli ahvolini eslatadi. Oltin uzukni brilliant ko'z bezaganidek, mazmundor nutqni ham notiqning madaniyati va mahorati bezaydi.<sup>6</sup> Agar haqiqiy, mazmundor fikr nuqtadonlik, go'zal talaffuz va yoqimli uslub libosi bilan bezansa, bunday nutq tinglovchini sehrlab, ohanrabo kabi o'ziga jalb qiladi va nafosat olamiga olib kiradi. Tinglovchida yuksak his-tuyg'ular uyg'otib, fikr ummonidan bahramand etadi. Aslini olganda mana shuning o'zi nutq madaniyatini belgilaydi. Kishi qaerda, qanday farliyat bilan band bo'lmasin, ilmu-hunar egallash bilan birga, odamlar qalbiga yo'l topa bilishi va muloqotda yaxshi so'zlashish san'atini ham egallashi zarurdir.

Demak, har bir inson notiqlik san'atidan bir oz bo'lsada, boxabar bo'lib, imkon qadar ko'proq badiiy adabiyot mutolaa qilish bilan o'z ona tili grammatikasini, milliy urf-odat va madaniyatini chuqur bilib borgan sari uning nutqi ham go'zallahib boraveradi. Shu bilan birga nutq so'zlovchining tashqi ko'rinishi, kiyinish odobi, hatti-harakati, yurish-turishi nutqining go'zal bo'lishida ham nihoyatda ahamiyati kattadir. Ona tilimiz milliy ma'naviyatimizni o'sishida, dunyoni teran idrok etishimizda katta ahamiyat kasb etarkan, nutqimiz go'zallahuvining ham muvoffaqiyat kasb etishida zamin bo'ladi.<sup>7</sup> Zamon rivoji, insonlar dunyoqarashi jadal rivojlangan va yuksak taraqqiy etgan texnologiyalar davrida notiqlikning o'rni beqiyos. Nutqning ta'sirchanligi bugungi kun notig'idan zamonaviy voqealarni, ilm fan yangiliklaridan, mamlakatdagi siyosiy jarayonlardan xabardorligiga ham ko'p jihatdan bog'liq. Tinglovchilarga haqiqatni etkazish va ularni u yoki bu fikrning to'g'rilingiga ishontirish bilan bog'liq har qanday axborot uzatish jarayoni o'zaro bog'liq 3 unsurdan tashkil topadi. Birinchi unsur – isbotlanishi kerak bo'lgan fikr. Ikkinchisi – fikrning to'g'rilingini isbotlovchi asos va dalillar. Uchinchisi – namoyishi, ya'ni fikr va asos, dalillar o'rtasidagi aloqani ko'rsatuvchi mantiqiy bog'lanish. Notiq nutqida ma'nosiga hamohang tarixdan, adabiyot, san'at va hayotdan misollar keltira bilishi kerak. Notiq bir kunda shakllanib qolmaydi. Notiqlik ko'p o'qish, xalq maqol va iboralarini, hikmatli so'zlarni, ta'sirli she'rlarni yoddan bilishni talab etadi.

<sup>6</sup> Арипова А. Нотиқлик ва унинг лисоний-услубий воситалари. Ташкент: –ЖИДУ, 2007, 58-59 б.

<sup>7</sup> Ортикова А. Ва б. Олий мактаб педагогининг нутқ маданияти – Ташкент: ИИБ Академияси, 2001 й, 5-б.





Qaysi soha, qaysi jabhada bo‘lmashin, qaysi fandan dars berilmasin, barchasining ibtidosi, tadbirkorning ham, innovatorning ham, fermerning ham, injenerning ham, fizik-u ximikning ham alifbosi nutq madaniyati, notiqlik san’ati bilan. Shu bois ta’limning kaliti nutq bilan, tarbiyaning kaliti xulq bilan bo‘lganidek muloqot va muomalaning ochqichi ham shular bilan. Nutqiy va xulqiy madaniyatga ega bo‘lмаган insonni komil inson desak, adashamiz. Shuning uchun insonning o‘zligi uchun ko‘zgu uning so‘zi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Nosirova A. Sahna nutqi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2012
2. Magdiev, B. K. Nutq madaniyatida milliylik ruhi. Molodoy ucheniy. — 2020. № 9
3. Stanislavskiy K. S. Aktyorning o‘z ustida ishlashi. T.Xo‘jaev tarjimasi. S.Muhamedov muharrirligida. — Toshkent: Yangi asr avlod, 2010.
4. Aripova A. Notiqlik va uning lisoniy-uslubiy vositalari. Toshkent: —JIDU, 2007
5. Ortiqova A. va b. Oliy maktab pedagogining nutq madaniyati – Toshkent: IIB Akademiyasi, 2001.
6. Safarov, A. I. (2020). Expression of the purpose of the authoritarian regime in military publications (on the example of military publications during the Soviet era in Uzbekistan). *Inostrannie yaziki v Uzbekistane*.
7. Safarov, A. I. (2020). Harbiy nashrlarda mustabid tuzum ko‘zlagan maqsad ifodasi.
8. Safarov, A. I. (2021). The role and importance of military journalism in the media space. *Inostrannie yaziki v Uzbekistane*.
9. Safarov, A. Kitobxonlik targ‘iboti konvergent maqola vositasida. Infolib: informatsionno-bibliotechniy vestnik uchrediteli: Obshchestvo s ogranicennoy otvetstvennostyu s uchastiem inostrannogo kapitala" E-LINE PRESS".

